

OLIV TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHNI IJTIMOIV- IQTISODIV RIVOJLANTIRISHNING ILMIY YONDASHUVLARI

Nizamova Shoira Isamiddinovna

Toshkent Perfekt universiteti
“Gumanitar fanlar” kafedrası
dotsenti., i.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi ilmiy yondashuvlari tahlil qilindi. Tadqiqotda inson kapitali nazariyasi va bilim iqtisodiyoti asosida universitetlarning strategik rivojlanish modeli o'rganildi. Universitet 3.0 konsepsiyasi doirasida ta'lim, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar integratsiyasi, moliyaviy mustaqillik hamda natijalarni iqtisodiyotga transfer qilish mexanizmlari baholandi. Institutsional va barqaror rivojlanish yondashuvlari oliy ta'lim tizimi samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida aniqlangan. Tadqiqot natijalari milliy islohotlar jarayonida ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini shakllantirishga xizmat qilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim boshqaruvi, inson kapitali, bilim iqtisodiyoti, Universitet 3.0, barqaror rivojlanish, innovatsiya.

Аннотация

В статье были проанализированы научные подходы к управлению высшими учебными заведениями в контексте социально-экономического развития. Исследование основывалось на теории человеческого капитала и концепции экономики знаний. В рамках модели Университета 3.0 была рассмотрена интеграция образования, науки и инноваций, а также механизмы финансовой независимости и трансфера результатов исследований в экономику. Подходы институционального и устойчивого развития были определены как факторы повышения эффективности и конкурентоспособности системы высшего образования. Полученные результаты использовались для обоснования управленческих решений в условиях реформирования национальной системы образования.

Ключевые слова: управление высшим образованием, человеческий капитал, экономика знаний, Университет 3.0, устойчивое развитие, инновации.

Abstract

The article analyzed scientific approaches to higher education management in the context of socio-economic development. The study was based on human capital theory and the concept of the knowledge economy. Within the framework of the University 3.0 model, the integration of education, research, and innovation was examined, along with mechanisms of financial independence and the transfer of research outcomes into the economy. Institutional and sustainable development approaches were identified as key factors in improving efficiency and competitiveness in higher education systems. The findings were used to support evidence-based management decisions in the process of national higher education reforms.

Keywords: higher education management, human capital, knowledge economy, University 3.0, sustainable development, innovation.

KIRISH

Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining asosiy maqsadi milliy ustuvorlik va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish hamda joriy etishga qaratilgan. Universitetlar jamiyatning muhim elementiga, texnologiyalarni uzatishning muhim kanaliga aylanib bormoqda, bu esa o'z navbatida dunyodagi kuchli akademik muhitni yaratadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ilmiy yondashuvlari - bu jamiyatning iqtisodiy o'sishi, ijtimoiy farovonligi va barqaror taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan nazariy va amaliy yondashuvlar majmuasidir. ular iqtisodiyot nazariyasi, rivojlanish iqtisodiyoti fanlarida shakllangan bo'lib, turli davr va mamlakatlar tajribasiga asoslanadi. Oliy ta'lim muassasalarini boshqarishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ilmiy yondashuvlari - bu universitetlarni faqat ta'lim beruvchi muassasa sifatida ko'rish, balki mamlakatning inson kapitalini oshirish, innovatsiyalarni yaratish, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik vosita sifatida boshqarishga qaratilgan nazariy va amaliy modellaridir. zamonaviy yondashuvlar ta'lim, tadqiqot, jamiyatga tatbiq etishni birlashtiradi. barqaror iqtisodiy rivojlanishning umumiy maqsadi iqtisodiy, ijtimoiy va biologik maqsadlarga mos kelish jarayoni orqali erishishdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

“Boshqaruvda yangicha yondashuv” universitetlar boshqaruv amaliyotining muhim komponentiga aylangan. Biroq, 1990-yillarning so'ngida mazkur konsepsiyaning asosiy ideyalarini tahlil va tizimlashtirish, shuningdek, boshqa modellardan ajratishga oid ilmiy izlanishlar vujudga keldi. Oliy ta'lim qamrovi kengayishi bilan universitet jamiyat rivojiga hissa qo'shish uchun yanada katta salohiyatga ega bo'ldi. O'qituvchilar, shifokorlar, muhandislar va boshqa mutaxassislar o'z kasbiy faoliyatini yuritish va jamiyatni qo'llab-quvvatlash uchun yuqori darajadagi akademik ta'lim oladilar. Bundan tashqari, universitetlar hayot haqidagi tushunchamizni yaxshilash maqsadida aniq fanlar va ijtimoiy sohalarda fundamental hamda amaliy tadqiqotlar olib boradi. Jamiyat uchun zarur mutaxassislarni tayyorlashda yuqori darajadagi akademik ta'lim beriladi. Bundan tashqari, jahon tajribasiga nazar tashlansa universitetlar global muammolarni hal qilishda innovatsion ishtirok etishining turli xil namunalari mavjud. Masalan, Janubiy Afrikadagi Pretoriya universiteti tadqiqotlardan foydalanib, butun qit'adagi ijtimoiy muammolarni hal etish strategiyasini qo'llaydi va bunda asosiy e'tiborni oziq-ovqat xavfsizligiga qaratadi. Sudanda joylangan Ahfad ayollar universiteti bo'lib, u akademik kurslar, tadqiqotlar, amaliy mashg'ulotlar va jamoatchilik bilan ishlash faoliyati orqali yaxlit tajriba orqali ayollarni o'zgarishlar tashabbuskori va bo'lajak yetakchilar sifatida qo'llab-quvvatlaydi[1]. Ijtimoiy masalalar 2018-yilda qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarida (BRM) amalga oshirishga va kelajak avlodni eng yirik global muammolardan xabardor qilish uchun BRM markazlari

faoliyat yuritgan. Bu oliy ta'lim muassasalarida BRM markazlarining tashkil etilishi empirik tadqiqotlarni olib borishga imkoniyat yaratgan[2]. Rivojlanish va oliy ta'limning rivojlanishga qo'shgan hissasi haqidagi asosiy fikrlash tarzini yengib o'tish uchun yetarlicha keng qamrovli qarash va rivojlanishga huquqlarga asoslangan, qobiliyatlar va ozodlik yondashuvlarini qamrab oluvchi kengroq tushuncha talab etiladi. Ta'limga qo'llanilganda, huquqlarga asoslangan yondashuv uni barcha uchun kafolatlanishi kerak bo'lgan universal inson huquqi sifatida ko'rib chiqadi, qobiliyatlar yondashuvi esa oliy ta'lim shaxslarning o'zlari qadrlaydigan narsalarga intilish erkinliklarini qanday kengaytirishiga qaratilgan[3]. Ushbu yondashuvlarga ko'ra, oliy ta'lim shunchaki ko'nikmalar, bilimlar va malakalarni egallash vositasidan ko'proq narsani anglatadi. Universitetlar shaxslarga o'zlari qadrlaydigan va intilish huquqiga ega bo'lgan erkinliklarga intilishga va ijtimoiy sinf, millat va jinsdan qat'i nazar, o'zlarining erkinligini rivojlantirishga imkon beradi, bu insonning yaxlit rivojlanishiga olib keladi.

1-jadval.

Oliy ta'lim tizimini ijtimoiy iqtisodiy boshqaruvga doir qarashlar¹


Ser Frank Lamp, Bovis Lend Lease	“Muvaffaqiyatning katta qismi jamoaga bog'liq. Menejrlarning o'zlariga bo'lgan ishonchi katta, lekin ular hech qachon “men” demasliklari kerak, faqat “biz” deyishlari kerak”.
Sergey Roshchin	Oliy ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro ta'sirning maqsadi ta'lim tizimi fundamental tayyorgarlikni ta'minlash, “yumshoq ko'nikmalar” ni egallash va iqtisodiy qiyinchiliklarga moslashuvchan kadrlarni tayyorlashdan iborat
D.Lederman	Oliy ta'lim ijtimoiy boshqarish talabani kasbiy rivojlantirishni, ularni ijtimoiy hayotdagi vaziyatlarga tayyorlashni maqsad qiladi. Shuning uchun ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.
A. Vahobov	Oliy ta'limni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning bir qismi sifatida ko'rib, jamiyat ishtirokini vasiylik kengashlari, klasterlar kuchaytirishni taklif qilishadi. Bu ta'lim sifatini oshirish va mehnat bozori talablariga moslashtirishga yordam beradi.
Robert Putnam	Ta'lim darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, fuqarolik faolligi va ijtimoiy ishtirok shunchalik kuchli bo'ladi
John Dewey	Oliy ta'limni ijtimoiy boshqarish orqali talabalar va jamiyat to'g'ridan-to'g'ri kollektiv harakatlarda ishtirok etishi kerak - bu ta'limni yanada progressiv va ijtimoiy foydali qiladi
N.Yu. Vlasova, E.L. Molokova, E.S. Kulikova	Universitetlar jamiyat ishtirokini muvofiqlashtiruvchi rol o'ynashi kerak — fuqarolik faolligi, ijtimoiy xizmatlar, xizmat ko'rsatish orqali o'qitish va ijtimoiy tadbirkorlik yo'nalishlarida. Bu talabalar va bitiruvchilarda nafaqat professional, balki ijtimoiy ko'nikmalarni (shakllantiradi)
Muallif ta'rifi	Oliy ta'lim tizimining ijtimoiy-iqtisodiy boshqarish — bu ta'lim tashkilotlarining resurslarini moliyaviy, inson va axborot ijtimoiy tenglik, iqtisodiy samaradorlik va innovatsion rivojlanishni ta'minlash uchun optimal boshqarish jarayoni bo'lib, ta'lim sifatini oshirish va mehnat bozori talablariga moslashtirishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'limni “ijtimoiy soha va iqtisodiyot ehtiyojlaridan kelib chiqib” boshqarish zarurligi ko'rsatadi. Mazkur jarayon oliy ta'limni rivojlantirish jamoatchilik ishtiroki ko'lamini oshirishi, malakali mutaxassislar va iste'dodli yoshlarni jalb qilishi jamiyatning hozirgi ehtiyojlari talablarini o'rganishni taqozo etadi[4]. Bu birinchidan, universitetning dual tabiati va madaniy gibridd modellar mavjudligi keltirib chiqaradi[5].

¹ Muallif tomonidan yig'ilgan

Ikkinchidan, universitet boshqaruv amaliyotida ayollar rolini qayta baholashga qaratilgan gender tadqiqotlari takomillashtirildi[6].

Demak, “yumshoq” va “qattiq” boshqaruv konsepsiyasi, tizimni isloh qilish, xodimlarni rag‘batlantirish va intizomiy ta’sir o‘tkazishning samarali usullarini ta’kidlab, “yangicha boshqaruv” yondashuvini shakllantiradi.



1-rasm. Boshqaruvda qo‘llaniladigan yondashuvlar¹

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot metodologiyasi nazariy va qiyosiy-tahliliy yondashuvlarga asoslandi. Oliy ta’lim muassasalarini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini o‘rganishda inson kapitali nazariyasi va bilim iqtisodiyoti konsepsiyalari metodologik asos sifatida qabul qilindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, qiyosiy o‘rganish, umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, Universitet 3.0 modeli doirasida boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi konseptual jihatdan baholandi. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimiga oid normativ hujjatlar va xalqaro tajriba materiallari o‘zaro solishtirildi. Natijalarni asoslashda sifat tahlili ustuvor bo‘lib, boshqaruvning institutsional, iqtisodiy va innovatsion omillari o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi.

¹ Muallif ishlanmasi

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim tizimidagi ijtimoiy boshqarish bevosita jamiyatdagi ijtimoiy ehtiyojlarni o'rganish natijasida iqtisodiy rivojlanish oliy ta'lim tizimini boshqarish konsepsiyasi bozorni, investitsiya topish va tadbirkorlikni birinchi o'ringa qo'yadi. Ushbu jarayon ta'lim sohasida ham qo'llanilmoqda ta'lim xizmatlarini islohotlarining obyekt sifatida talqin qilmoqda. Bunda iste'molchi maqomini ta'lim oluvchilar oladi, ta'lim xizmatini oliy ta'lim muassasalari amalga oshiradi. Universitetlarda ta'lim oliy uchun raqobat muhiti shakllantiriladi, ta'lim talabga asoslangan iqtisodiy samara universitet bitiruvchilarining daromad va martaba ko'rsatkichlari, institut reytingi hamda ta'lim xizmatlariga to'lov qobiliyati orqali baholanadi. Shunga ko'ra, iqtisodiy tizim maqsadlari asosiy ehtiyojlarni qondirish, tenglikni oshirish va tovarlar va xizmatlarni ko'paytirishdir; ijtimoiy o'lchov maqsadlari madaniy xilma-xillik, institutsional barqarorlik, ijtimoiy adolatni ta'minlaydi.

Natijada, innovatsion va tadbirkorlik universitetlari tashkil etilib, jamiyatning texnologik va iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi bilim markazlari sifatida xizmat qiladi. Innovatsion tadbirkorlik texnologik klasterlarni, bilimlarni tijoratlashtirish tarmoqlarini, istiqbolli texnologik bozorlarni va innovatsion mexanizmlarni shakllantirishni, texnologik tadbirkorlarni tayyorlashni, kognitiv boshqaruvni hamda boshqarishda ijodkorlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik usullarini qo'llab quvvatlaydi. Iqtisodiy rivojlanish iqtisodiy o'sish va ta'lim, jamiyat, iqtisodiyot va siyosatda kuzatilgan aholining hayot sifatining yaxshilanishi sifatida belgilanadi.

Innovatsiya va tadbirkorlik modeli universitetlarning strukturaviy tuzilmasi va raqobat muhitini shakllantiradi, bunda innovatsion sherikliklar raqobatbardoshligini ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm sifatida ta'minlaydi. Universitetlar evolyutsiyasidagi modellar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2.0 modeli ya'ni, ta'lim va fan 3.0 modeliga ta'lim, fan va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga o'tish quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

- ijtimoiy-akademik-universitet tuzilmasini transformatsiya qilish, akademik muhit, o'quv jarayoni va pedagogik innovatsiyalar; ilg'or ilmiy-ta'lim rivojlanishi;
- ilmiy-innovatsion- tadqiqot va texnologik mukammallik markazlarini tashkil etish, ochiq innovatsiyalarni ishlab chiqish, "universitet markazida" konsepsiyasini joriy etish va innovatsion-tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish;
- iqtisodiy-tarmoq tamoyillariga asoslangan mehnat bozorlariga moslashuvchanlik, intellektual mulk boshqaruvi, korporativ va multikampus modellarining istiqbolli unsurlari.

Mazkur yondashuvlar ichki omil natijalar ko'rsatkichlarini inobatga olishni taqozo etadi. Bu belgilangan maqsadlarning sifati va real amalga oshirilishini, joriy holatni baholashni, rahbar va xodimlar motivatsiyasini, rahbar salohiyati va shaxsiy fazilatlarini, resurslarning miqdori va sifatini ta'minlab beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil oliy ta'lim muassasalarini boshqarish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan bevosita bog'liq tizimli jarayon ekanligini ko'rsatdi. Universitetlar inson kapitalini shakllantirish, bilimlarni ishlab chiqarish va ularni iqtisodiyotga tatbiq etish orqali milliy taraqqiyotning muhim institutsional omiliga aylangani aniqlandi.

Universitet 3.0 modeli doirasida ta'lim, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatning integratsiyasi boshqaruv samaradorligini oshirgan. Institutsional va barqaror rivojlanish yondashuvlari ichki resurslardan foydalanish darajasini yaxshilagan hamda raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar shakllantirildi. Birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni kuchaytirish va natijaga yo'naltirilgan rejalashtirish tizimini joriy etish zarur. Ikkinchidan, ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish mexanizmlarini kengaytirish va universitet–sanoat hamkorligini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, moliyaviy mustaqillikni oshirish uchun diversifikatsiyalangan moliyalashtirish manbalarini joriy etish lozim. To'rtinchidan, raqamli boshqaruv vositalari va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini keng qo'llash boshqaruv samaradorligini oshiradi. Beshinchidan, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va xalqaro akademik hamkorlikni kengaytirish tizimning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Mazkur yondashuvlar oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish va milliy rivojlanish strategiyalari bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. United Nations. (2018). SDG <https://academicimpact.un.org/content/sdg-hubs>. Accessed 26 February 2019
2. M. Chankseliani · T.McCowan. Higher education and the Sustainable Development Goals. / Published online: 6 November 2020.
3. Boni, A., & Walker, M. (2016). Universities and Global Human Development: Theoretical and empirical insights for social change. London: Routledge. McCowan, T. (2016). Universities and the post-2015 development agenda: an analytical framework. *Higher Education*, 72(4), 505-523.
4. Балмасова Т.А. «Третья миссия университета» - новый вектор развития? // Высшее образование в России. 2016. № 8-9. С. 48-55.
5. Sotirakou T. Coping with conflict within the entrepreneurial university: threat or challenge for heads of departments in the UK higher education context // *International Review of Administrative Sciences*. 2004. Vol. 2. № 70. P. 1-28.
6. Newman J. Gender and cultural change // *Gender, Culture and Organizational Change* /ed. By C. Itzin, J. Newman. London: Routledge, 1995.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**